

## O'RGANISH JARAYONINI BAHOLASHNING ASOSLARI

**Aripova Shodiya Makhmudovna**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**To'ychiyev Jamoliddin Muhammadali o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'rganish strategiyalari hamda til o'rganish jarayonida til o'rganuvchilar o'z bilimlarini baholashlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *chet tili, o'rganish, strategiya, til o'rganuvchi, baholash, imkoniyat.*

**Abstract:** *The article discusses learning strategies and how language learners evaluate their knowledge in the process of language learning.*

**Key words:** *foreign language, learning, strategy, language learner, assessment, opportunity.*

**Аннотация:** *В статье обсуждаются стратегии обучения и то, как изучающие языки оценивают свои знания в процессе изучения языка.*

**Ключевые слова:** *иностраный язык, обучение, стратегия, изучающий язык, оценка, возможность.*

### KIRISH

O'rganish straregiyalarini qo'llash faol hamda o'zgaruvchan jarayondir. Til o'rganuvchi o'rganish strategiyalarini qo'llab ko'rishdan to'xtamasligi kerak. Shu orqali til o'rganuvchida o'rganish yo'li va muvaffaqiyatini tahlil qiladi va bunda metakognitiv straregiyalardan foydalanadi.

Chet til o'qituvchisi o'z til o'rganuvchilarini o'rganish haqida o'ylab ko'rishga, bu haqida fikr yuritishga odatlantirishi lozim. O'z imkoniyatlarini baholay olish nemis tili darslarining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Buning yordamida til o'rganuvchi nimani o'rganib bo'lgani va nimani takrorlashi lozimligi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Bu bilim o'rganishning keyingi qadamlarini rejalashtirish, yolg'iz o'rganishni davom ettirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi<sup>34</sup>.

### ASOSIY QISM

Bu maqolamizda til o'rganuvchilarning o'z o'rganish jarayonlarini baholashlari, buni qanday amalga oshirishlari, o'qituvchidan bu uchun nimalar talab etilishi kabilarga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Til o'rganuvchilar o'z samaradorliklarini baholay olishlari uchun bir necha talablarni bilishlari lozim.

Birinchidan til o'rganuvchi baholash mezonlari bilan tanish bo'lishi lozim. Men tuzgan matn qachon yaxshi chiqadi? Qachon men o'z o'rganishim yaxshilanganini

---

<sup>34</sup> Brünner I. Gehirngerechtes Lernen mit digitalen Medien: ein Unterrichtskonzept für den integrativen DaF-Unterricht. – Iudicium, 2009.

aytolaman? O'z o'rganish samaradorligimni qanday o'lchashim mumkin? Bu savollarga javob berish uchun til o'rganuvchi darsda talab etilayotgan til o'rganish maqsadlarini bilishi lozim. Bundan esa konkret baholash mezonlari shakllantiriladi. Transparent o'rganish maqsadlari ham til o'rganuvchilarning orientatsiyasi uchun muhim punkt hisoblanadi. Ayni paytda mavjud bo'lgan mavhum o'rganish maqsadlarini asoslay olish ham juda ham muhim. Agar til o'rganuvchi qanchalik yosh bo'lsa, o'rta o'rganish tiliga alohida va ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiq. O'rganishning dastlabki bosqichlarida baholash mezonlarini qat'iy belgilab qo'ymaslik kerak. Masalan, til o'rganuvchi xat yozishi kerak bo'lsa, o'rganish maqsadi xatning grammatik va leksik jihatdan to'g'ri bo'lishi emas, balki xatni qabul qiluvchining shu xatni tushunishi hisoblanadi.

Ikkinchidan til o'rganuvchi o'z o'rganish samaradorligini baholash kriteriyalari bilan bog'lay olishi lozim. Agar maqsad mazmunan va lisoniy jihatdan to'g'ri bo'lgan elektron xat yozish bo'lsa, lisoniy xatolar ko'p bo'lmasligi, kommunikativ maqsad aniq amalga oshirilgan bo'lishi, matn turiga qarab belgilangan xususiyatlarga amal qilingan bo'lishi, mavjud lisoniy xatolar tushunishga to'sqinlik qilmasligi kabi mezonlarga amal qilish kerak. Til o'rganuvchilar esa bu belgilangan mezonlarga amal qilgan holda matn yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Til o'rganuvchining o'zini-o'zi past baholashi (Bu meni qo'limdan umuman kelmaydi) yoki o'zini-o'zi yuqori baholashi (Meni qo'limdan hamma narsa keladi, men umuman xato qilmayman) ham foydali hisoblanadi. Lekin albatta til o'rganuvchining o'z-o'zini realistik baholashi zarur. Buning uchun esa til o'rganuvchi o'z ustida mustaqil ishlashni o'rganish uchun mashq qilgani kabi o'zini-o'zi baholashni ham mashq qilishi lozim<sup>35</sup>.

Bundan tashqari o'z o'rganish samaradorligini baholash mezonlarini bilishi va samaradorlik kriteriyalariga bog'lay olishi lozim. Agar til o'rganuvchi o'zini-o'zi baholashni ushbu ikki talabini yaxshi bilsa, darsning maqsadini yaxshi anglay oladi. Agar aksincha bo'lsa, maqsadga erishish masalasi ham teskari aks topishi mumkin.

Bugungi kunda yaratilayotgan barcha zamonaviy darsliklar til o'rganuvchining o'zini-o'zi baholash uchun jadval va diagrammalarni o'z ichiga oladi. Odatda bundan jadvallar har bir bobning yakunida beriladi.

Bu esa til o'rganuvchilar uchun o'z-o'zini baholashning mezonini va shakllarini bilib olishga yordam beradi. CEFR talablariga mos holda yangi darsliklar o'z-o'zini baholashning "KANN BESCHREIBUNG" (QILA OLAMAN) tizimiga yo'naltirilgan. O'zini-o'zi baholash turli kompetensiyalarga bog'liq bo'ladi.

O'zini-o'zi baholashning eng sodda shakllaridan biri dastlabki darslarda chek-list o'tkazish hisoblanadi. Uning yordamida til o'rganuvchilar nimani yaxshi, nimani o'rtacha, nima umuman bilmasliklarini belgilaydilar.

<sup>35</sup> Traub S. Selbstgesteuert lernen im Projekt? Anspruch an Projektunterricht und dessen Bewertung aus Sicht von Lehrenden und Lernenden // Zeitschrift für Pädagogik. – 2011. – T. 57. – №. 1. – C. 93-113.

Til o'rganuvchilar o'z kompetensiyasini asoslash uchun sodda gaplar yozishadi. Til bo'yicha ma'lum ko'nikmalari shakllanib bo'lgan, masalan B darajadagi til o'rganuvchilar esa o'z bilimlari darajasini matn orqali ifodalab berishlari yoki tayyor ish qog'ozlaridan foydalanishlari ham mumkin. Bundan tashqari audio yoki video tarzda taqdim etishlari ham mumkin. Til o'rganuvchining shaxsiy til ko'nikmalarini baholash uchun o'zi tayyorlagan audio matnni eshitishi ham yaxshi yordam beradi.

Odatda chek-list o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi. Bunda o'qituvchi guruhi uchun o'zi belgilab olgan maqsadlarini aks ettirishi ham mumkin.

Til o'rganuvchilarda individuallik va mustaqillikni shakllantirish uchun nimalar qilish kerakligi haqida ham til o'rganuvchilarda, ham chet til o'qituvchilarida tushuncha shakllantirish masalasi juda muhim. Til o'rganuvchilar o'rganganlari qayta aks ettira olishlari, mustaqil o'rganishni o'rganishlari, samarali o'rganish straregiyalarini tanlay olishlari, o'z egallagan bilimini o'zi baholay olishlari uchun dars jarayonida bir qancha targ'ibot ishlari amalga oshirilishi kerak. Til o'rganuvchilarda individuallik shakllanish uchun ularga erkinlik zarur. Bu orqali ular o'zlariga mos o'rganish yo'lini tanlab oladilar, avval egallagan bilimlarini faollashtiradilar, o'zlarining kuchli tomonlarini topadilar va til o'rganish jarayonida o'z emotsiya hamda muhabbatlaridan samarali foydalanishni o'rganishlari mumkin bo'ladi<sup>36</sup>.

Bunda til o'rganuvchining orientatsiyasidan darsga kirishish va muloqot qila olish imkoniyati sifatida ham foydalaniladi. Til o'rganuvchi o'rganish jarayoni muvaffaqiyatli kechishi uchun o'rganish jarayoniga bo'lgan javobgarlik va mas'uliyatni o'z bo'yniga olishi kerak.

Chet til o'qituvchisining o'z til o'rganuvchilarining individualliklarini to'g'ri baholay olishi, darsni to'g'ri tashkil etish, til o'rganuvchilarning turlicha o'rganish extiyojlari va bilim darajalaridan kelib chiqqan holda yondashishi til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Chunki ko'p hollarda til o'rganuvchilarning extiyojlari juda ham turli-tuman bo'ladi.

#### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni ta'kidlamoqchimizki, o'qituvchi ham til o'rganuvchi ham o'rganish jarayonini to'g'ri baholay olishi lozim. Baholashning real bo'lishi ta'lim samaradorligining ham real bo'lishiga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Traub S. Selbstgesteuert lernen im Projekt? Anspruch an Projektunterricht und dessen Bewertung aus Sicht von Lehrenden und Lernenden //Zeitschrift für Pädagogik. – 2011. – T. 57. – №. 1. – C. 93-113.

<sup>36</sup> Nilshon I. Hausaufgaben und selbständiges Lernen //vom Deutschen Jugendinstitut, Projekt „Lebenswelten als Lernwelten“, München. – 1999.

2. Nilshon I. Hausaufgaben und selbständiges Lernen //vom Deutschen Jugendinstitut, Projekt „Lebenswelten als Lernwelten“, München. – 1999.
3. Brünner I. Gehirngerechtes Lernen mit digitalen Medien: ein Unterrichtskonzept für den integrativen DaF-Unterricht. – Iudicium, 2009.
4. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/12/1). ÜBUNGSTYPOLOGIE IM DEUTSCHUNTERRICHT. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS", 114-119
5. 12. Makhmudovna, A. Sh.( 2021/12/30). the role of hometasks in teaching german as foreign language. Eurasian journal of academic research, 865,866,867
6. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/12/1). THE ROLE OF BRAIN IN LANGUAGE LEARNING AND TEACHING. Results of National Scientific Research International Journal, 451-456
7. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/1/5)THE ROLE OF MOTIVATING LESSONS IN TEACHING GERMAN AS FOREIGN LANGUAGE: TIPS AND IDEAS. Eurasian journal of academic research, (volume 1 issue9 2021 december)868,869,870
8. Makhmudovna, A. Sh(2022/3/4).Working with Texts in Grammar Lessons.BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI,261-263